

I MODUL.

LOGOPSIXOLOGIYA VA PSIXOLOGIK KORREKSIYA METODLARI FANINING ILMIY – NAZARIY ASOSLARI

1-Mavzu. Logopsixologiya va psixologik korreksiya metodlari fanining maqsad va vazifalari

Reja:

1. Logopsixologiya va psixologik korreksiya metodlari fani predmeti, maqsad va vazifalari.
2. Logopsixologiya va psixologik korreksiya metodlari fanining tadqiqot usullari.
3. Logopsixologiya va psixologik korreksiya metodlari fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.

Tayanch iboralar: Logopsixologiya, paralingvistik vositalar, kommunikatsiya, psixik xususiyatlar, psixik jarayonlar, nutq nuqsonlari mexanizmlari, psixologik korreksiya, psixokorreksiya metodlari.


Logopsixologiya maxsus psixologiyaning bir bo‘limi bo‘lib, nutq nuqsoniga ega bolalar psixik jarayonlari, psixik xususiyatlari, psixik holatlaridagi nuqsonlarni psixokorreksiya qilishda maxsus metodlar va tamoyillar orqali korreksion-ta’lim-tarbiya jarayoni olib borishni ko‘zda tutadi va har bir nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar va shaxslarning shaxsiy sifat hamda xususiyatlarining o‘ziga xosligini tadqiq qiladi.

Logopsixologiya maxsus psixologiyaning asosiy tarkibiy qismi sifatida

logopediya va psixologiyaning zamonaviy yutuqlari asosida takomillashib bormoqda. Demak, logopsixologiya logopediya va psixologiya fanlarining o‘zaro uyg‘unligi asosida yuzaga kelgan. Psixologiya – inson psixikasining vujudga kelishi, namoyon bo‘lishi va rivojlanishi qonuniyatlari va mexanizmlarini o‘rganadi.

Psixika nima, uning tarkibini qanday jihatlar tashkil etadi.

Psixika - yuksak darajada tashkil topgan materiyaning voqelikni alohida shaklda aks ettirishdan iborat xususiyati. Professor **M.G.Davletshinning** fikricha, psixika deganda oliy darajadagi materiyaning (miyaning) xususiyati tushunilib, u ob’ektiv borliqni aks ettirilishida namoyon bo‘ladi, sub’ekt faoliyatini ma’lum maqsad asosida yo‘naltiradi hamda xulq-atvor negizida shakllanadi[1].



Psixikaning tarkibiga psixik jarayonlar, psixik holatlar hamda psixologik xususiyatlarni kiritish mumkin. **Psixik jarayonlar** – bu sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, diqqat va tasavvurlar. Psixik jarayonlar yordamida ob’ektiv olam sub’ektiv aks ettiriladi va tashqi dunyo, undagi narsa va predmetlar, ular o‘rtasidagi bog‘liklar haqida bilamiz. Shu sababli psixik jarayonlar bilish jarayonlari deb ham ataladi.

Psixik jarayonlarda kognitiv, hissiy va irodaviy jarayonlar farqlanadi. Kognitiv jarayonlar yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, sezgi, idrok, xotira, tafakkur,

[1] Davletshin M.D.,To’ychieva S.M. Umumiy psixologiya. T.,2002,7-bet.

tasavvurni o‘z ichiga oladi, ularning yordami bilan atrofdagi dunyoni va o‘zini tushunish mumkin. Sezgi va idrok birlamchi psixik jarayonlar bo‘lib, ular asosida xotira, tafakkur va boshqalarning rivojlanishi sodir bo‘ladi. Diqqat bilish jarayonlari orasida alohida o‘rin tutadi, u barcha jarayonlarda mavjud bo‘lib, diqqatni bir narsaga qaratishga imkon beradi. **His tuyg‘ular va emotsiyalar** - bu insonning atrofdagi dunyo hodisalariga, uning ichki hayotidagi voqealarga munosabati haqidagi tajribasini aks ettiruvchi va ular uchun, uning hayoti uchun qanchalik muhimligini belgilaydigan, ya’ni ularning shaxsiy ahamiyatini belgilaydigan psixik jarayonlar hisoblanadi. Xulq-atvorni ongli ravishda tartibga solish, ongli ravishda belgilangan maqsad, qabul qilingan niyat bo‘yicha harakat qilish qobiliyati iroda va ixtiyoriylik orqali ta’minlanadi. Xotira va tafakkur yuksak psixik jarayonlar bo‘lib, ular tufayli ongli faoliyat amalga oshiriladi. Psixik jarayonlar aqliy faoliyatning dinamikligi, plastikligi, o‘zgaruvchanligi va uzluksizligi bilan tavsiflanadi.

Psixik holatlar – sub’ekt tomonidan aniq anglanilmagan ichki yoki tashqi qo‘zg‘atuvchilarning integratsiyalashtirilgan aks ettirish turlari. Psixik holatlarga quyidagilar kiradi: quvnoqlik, charchoq, apatiya, tushkunlik, eyforiya, begonalashish, zerikish, beparvolik, stress va boshqalar. Psixik holatlar psixik jarayonlarning ayniqsa, mas’uliyatli va ekstremal vaziyatlarda namoyon bo‘lishining o‘ziga xosligini belgilaydi. Ular insonning individual-psixologik xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Psixik holatlar tashqi va ichki hayotdagi muayyan hodisalarining insonga ko‘rsatadigan ta’sirini aks ettiradi. Biroq, inson odatda bu holatning faqat o‘zini anglaydi, lekin uning sabablarini yoki umuman tasavvur qilmaydi, yoki noaniq tasavvur qiladi.

Psixik xususiyatlar - bu shaxs yoki insonlar guruhini bir-biridan ajratib turadigan barqaror va muhim xususiyatlardir.

Psixik xususiyatlarning quyidagi turlari farqlanadi:

1) individual xususiyatlar (temperament, biologik ehtiyojlar, moyillik va boshqalar);

2) sub’ektiv xususiyatlar (ong, his-tuyg‘ular, qobiliyatlar va boshqalar);

3) shaxsiy xususiyatlar (ijtimoiy maqom va rollar, qadriyat yo‘nalishlari va boshqalar);

4) shaxs sifatidagi xususiyatlar (xarakter, o‘zini o‘zi boshqarish va boshqalar).

Psixik jarayonlar, psixik holatlar va psixik xususiyatlar o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, bir-biridan alohida mavjud bo‘lmaydi. Ular o‘zaro ta’sirda bo‘ladi va bir-biriga aylanishi mumkin. Ushbu o‘zaro ta’sirga asoslanib, barcha tirik organizmlarning umumiy xususiyati sifatida insonning faolligi yuzaga keladi.

Demak, psixologiya inson psixikasi mohiyati haqidagi fan.

Logopediya - nutqning buzilishi, nutq buzilishlarini oldini olish, aniqlash va bartaraf qilish usullari yordamida maxsus ta’lim va tarbiya berish haqidagi fan. Logopediya maxsus pedagogika bo‘limlaridan biri sanaladi va nutq faoliyatidagi buzilishlarning sabablari, mexanizmlari, belgilari, kechishi, tuzilishini hamda korreksion ta’sirotlar tizimini o‘rganadi.

Professor **M.Yu.Ayupovaning** ta’kidlashicha, “fan sifatida logopediya nutq nuqsonini tuzatish, nutqiy faoliyati zaiflashgan shaxslarni o‘qitish va tarbiyalash jarayoni hisoblanadi. Logopediyani o‘rganish obyekti — nutq nuqsoniga ega bo‘lgan shaxs. Adabiy tilda qabul qilingan nutq normasidan biroz bolsa ham chetga chiqish — bu nutq nuqsoni hisoblanadi”[2].

Yuqorida qayd qilinganidek, logopsixologiya psixologiya va logopediya o‘rtasidagi oraliq fan hisoblanadi.

Logopsixologiyaning kommunikativ konsepsiyaga o‘tishi nutqiy faoliyatning paralingvistik vositalarini (intonatsiya, temp, modulyatsiya, fonasiya), muloqotning komponenti (mimika, imo-ishora, to‘g‘ridan-to‘g‘ri sensor va jismoniy kontaktlar), kommunikasiya jarayonining turli shakllarini chuqur va puxta o‘rganish, tadqiq etish imkoniyatini beradi. Bu tahlillar insonlar munosabatining psixologik va ijtimoiy-psixologik darajasiga ta’sir ko‘rsatadi.

Logopsixologiya fani maxsus psixologiyaning yangi tarmog‘i hisoblanadi. Nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalar psixik rivojlanishining o‘ziga xos

[2] Ayupova M.Yu. Logopediya. T, Faylasuflar jamiyati:-2007;3-bet.

xususiyatlarini aks ettiruvchi bir qator ma’lumotlar bo‘lib, rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar korreksion-ta’limini o‘rganuvchi o‘zbekistonlik olimlar **L.R.Mo‘minova, M.Yu.Ayupova, R.Shomaxmudova, X.M.Po‘latova, D.A.Nurkeldiyeva, M.P.Xamidova, Z.M.Axmedova, N.Z.Abidova** va boshqalar o‘z diqqatlarini nutq nuqsonlarining mexanizmlari, sabablari, alomatlari va bartaraf etish usullarining ilmiy-metodik asoslarini yaratishgan. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar psixik rivojlanishini o‘rganishga esa kam ahamiyat berilgan. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar ruhiy rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari, turli xil nutq buzilishlari bo‘lgan bolalar bilan korreksion-logopedik ishlarni olib borish davomida har bir nutq kamchiliklariga aynan o‘zigagina xos bo‘lgan ruhiy jarayonlarni va xususiyatlarni o‘rganish logopsixologiya fanining asosiy maqsadidir.

Logopsixologiyaning predmeti –nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarning psixik xususiyatlari va ularga psixologik korreksion yordam ko‘rsatish metodlaridir.

Logopsixologiyaning ob’ekti – tug‘ma yoki orttirilgan nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar.

Logopsixologiyaning maqsadi – nutqida nuqsoni bor bolalarga va shaxslarga psixologik yordam ko‘rsatishdan iborat.

Logopsixologiyaning **bir qancha vazifalari** bo‘lib, bular:

- Psixika va nutq jarayonlarining o‘zaro ta’sir mexanizmlarini o‘rganish;
- Nutq nuqsoniga ega shaxslar psixikasini optimal diagnostika va korreksion amaliyoti uchun asos sifatida yaxlit yondashuv nuqtai-nazaridan baholash;
- Nutq nuqsonlarini turli shakllariga ega bo‘lgan bolalar va shaxslarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish xususiyatlarini psixologik o‘rganish;
- Tashqi ifodalanishiga ko‘ra o‘xshash holatlar (autizm, eshitish

funksiyalaridagi buzilishlar, psixik taraqqiyotdan orqada qolish, rivojlanishdagi murakkab kamchiliklar) orasidan birlamchi nutqiy rivojlanishdan orqada qolishni ajratib olish imkonini beruvchi differensial diagnostika metodlarini ishlab chiqish;

- Nutq nuqsonlariga ega shaxslar psixikasini psixologik profilaktika va korreksiya qilish metodlarini takomillashtirish;

- Nutqida turli nuqsoni bo‘lgan shaxslarning psixik rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish;

- Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarning bilish faoliyatidagi kamchiliklarni korreksiyalash, bartaraf etish;

- Nutq nuqsonlarining differensial diagnostik metodlarini ishlab chiqish;

- Nutq nuqsonlarida hissiy-irodaviy soha va shaxslararo munosabatlardagi kamchiliklarni bartaraf etish metodlarini ishlab chiqish;

- Nutq nuqsoniga ega shaxslarning bilish faoliyatidagi va hissiy-irodaviy sohasidagi kamchiliklarni oldini olish uchun mo‘ljallangan tadbirlarni ishlab chiqish.

Nutq buzilishi bo‘lgan bolalarda odatda markaziy asab tizimida funksional yoki organik buzilishlar kuzatiladi. Logopsixologiyani psixologiyasiz takomillashtira olmaymiz. Nutqdagi og‘ishlarni tashxislash va tuzatish nutq va yoshga bog‘liq inqirozlarni tushunish va ularni guruhlarga qarab bolaning xatti-harakati va rivojlanishi o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rnatish imkonini beradi.

Logopsixologiyaning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi.

Logopsixologiya — maxsus psixologiyaning bir bo‘limi, maxsus psixologiya esa umumiy psixologiyaning bir yo‘nalishi, sohasidir. Umumiy psixologiya psixikani tarkib topishi va rivojlanishi qonuniyatlarini me’yorda o‘rgansa, logopsixologiya esa ana shu qonuniyatlarni nuqsonli rivojlanishini o‘rganadi. Logopsixologiya — tibbiy fanlar: fiziologiya, nevrologiya, psixiatriya, pediatriya, nevropatologiyaga asoslanadi.

Nutq buzilishlari bilan **fiziologlar, nevropatologlar, logoped, psixolog va**

lingvistlar shug‘ullanadilar. Logopsixologiya umumiy va maxsus psixologiya, psixodiagnostika fanlari bilan bog‘liqdir. Logoped bolaning psixik rivojlanish qonuniyatlarini bilishi, psixologik-pedagogik tekshiruv metodlarini qo‘llay olishi lozim.

Shunday qilib, logoped nutqiy buzilishlarning turli shakllarini ajratishi, intellektual, emotsional va xulqiy buzilishlar bilan bog‘liq nutqiy buzilishlarga tashxis qo‘yish malakasiga ega bo‘lishi kerak.

Psixologik bilimlarni bilish logopedga faqat nutqiy buzilishlarni emas, balki nutqiy buzilishni ruhiy buzilishlar bilan bog‘liqligini to‘g‘ri tushunish imkoniyatini beradi. Bunday bilim turli yoshdagi nutq nuqsoni mavjud bolalar bilan muloqotga kirishishga yordam beradi.

L.S.Vigotskiyning fikricha, nutqiy faoliyatni fiziologik jarayon sifatida o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Kommunikativ nazariyaning nuqtai nazaridan esa nutq buzilishi – verbal kommunikasiyaning buzilishidir.

Logopsixologiyani o‘rganishning **ikki usuli** - nazariy va amaliy usuli mavjud bo‘lib, **nazariy usuli** quyidagilarga qaratilgan:

- Jamiyatda nutq buzulishi bo‘lgan bolalarning individual rivojlanishini o‘rganish;
- Nutq og‘ishlarida kognitiv faoliyatning rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganish;
- Logopsixodiagnostikani shakllantirish va qo‘llash;
- Psixologiya nuqtai nazaridan tuzatish usullari va terapiya samaradorligini asoslash.

Logopsixologiyani o‘rganishning **amaliy usuli** esa:

- Bolalarni kognitiv sohasini diagnostika qilish;
- Kognitiv og‘ishlarni psixologik tuzatish, ijtimoiy va shaxsiy rivojlantirish;
- Aqliy rivojlanishda ikkilamchi og‘ishlarning oldini olish;
- Bolalarning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishi konsepsiyasini diagnostika qilish kabi vazifalarni bajaradi.

Logopsixologiya metodlari.

Logopsixologiya alohida fan sifatida o‘z predmetini o‘rganishda muayyan metodlardan foydalanadi. Logopsixologiyaning asosiy metodlariga kuzatish, suhbat, eksperiment (tajriba), test metodlarini kiritish mumkin.

Ushbu metodlarga alohida to‘xtalib o‘tamiz.

Kuzatish metodi. Kuzatish metodi yordamida oddiy, tabiiy xulq-atvor o‘rganiladi. Monitoring turlari har xil bo‘lishi, joyga ham bogliq bo‘lishi mumkin. Ushbu metodning mazmuni ruhiy hodisalarni muayyan sharoitda, o‘ziga xos o‘zgarishlarni o‘rganish va ushbu hodisalarni psixologik asoslash, tahlil qilishdan iborat.

Logopsixologiya metodlari



01 kuzatish

02 suhbat

03 tajriba

04 test

Suhbat (so‘rov) metodi: Bunga intervyu va anketalar kiradi. Suhbatning maqsadi taklif etilgan savollarga bolaning aniq, ob’ektiv, to‘g‘ri javobi asosida ma’lumot olish va hissiy reaksiyalari, intonasiyalarini aniqlash va qayd etishdir.

Tajriba (eksperiment) metodi: ilmiy asoslangan holda o‘rganilayotgan hodisani tadqiqotchining o‘zi tomonidan yaratilgan va boshqariladigan sharoitda o‘rganiladi. Bu psixologik o‘rganish uchun optimal sharoit yaratish maqsadida tadqiqotchining inson faoliyatiga faol aralashuvini nazarda tutuvchi usuldir.

Test metodi: Bu asosan vaqt jihatidan cheklangan testlar. Ular ba’zi

psixologik xususiyatlardagi farqlarni aniqlash uchun zarurdir. Ushbu metod yordamida muayyan miqdoriy va sifatiy individual psixologik farqlar aniqlanadi.

Logopsixologiya muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishning ajralmas vositasidir. Bu alaliya, duduqlanish, afaziya va boshqa turli xil nutq va muloqot buzilishlarini aniqlash va davolashga yordam beradi. Logopsixologik usullar barcha yoshdagi odamlarda o‘zaro ta’sir ko‘nikmalarini mustahkamlash va yaxshilash imkonini beradi. Psixologik kasalliklarning oldini olish uchun psixoprofilaktika zarur. Birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi profilaktika bo‘lishi mumkin. Mavjud kamchiliklar uchun ikkilamchi profilaktika o‘tkaziladi. Bu qo‘shimcha muammolarni oldini olishga yordam beradi. Psixologik o‘rganish natijalari olingach tizimli yondoshuv olib boriladi. Bundan maqsad - ijtimoiy va mehnatga moslashishdir.

Demak, **logopsixologiya** - bu nutq rivojlanishi va nutq buzilishlarini o‘rganadigan ilmiy fan. U nutq buzilishining sabablari va mexanizmlarini tushunish uchun psixologiya, tilshunoslik va neyropsixologiya sohalaridagi bilimlarni birlashtiradi. Logopsixolog bolalar va kattalardagi nutq muammolarini tashxislash, davolash va tuzatishda muhim rol o‘ynaydi. Ularning ishi odamlarga muloqotdagi qiyinchiliklarni yengishga va til faoliyatining optimal darajalariga erishishga yordam beradi. Bugungi kunda logopsixologiya rivojlanishda davom etmoqda. Logopsixologiya nutq va nutq buzilishlarini tushunishimizga hissa qo‘shadi va shu bilan nutqida buzilishlari bo‘lgan shaxslarning hayot sifatini yaxshilaydi.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

- Ayupova M.Yu. Logopediya T.,2007.
- Денисова О.А.Детская логопсихология. М.,2008.
- Калягин Б.А. Логопсихология. М.,2005.
- Mo‘minova L.R. , Abidova N.Z. Maxsus psixologiya. T.,2013.
- Трошин О.В., Жулина Е.В. Логопсихология. М.,2005.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar:

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Logopsixologiya fani nimani o‘rganadi?
2. Logopsixologiyaning maqsad va vazifalari nimadan iborat?
3. Logopsixologiya qaysi fanlar oralig‘ida joylashgan?
4. Logopsixologiya qanday vazifalarni bajaradi?
5. Logopsixologiya qanday fanlar bilan aloqada?
6. Logopsixologiyaning qanday metodlari mavjud?